



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX fakulteti

**«Ijtimoiy madaniy faoliyat»
kafedrasi**

**«O'zbek va jahon adabiyoti »
(amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi)**



NAMANGAN-2010

Mazkur ishlanma bakalavriat yo`nalishi: 5810400-Ijtimoiy madaniy faoliyat yo`nalishi uchun mo`ljallangan bo`lib, talabalarga O`zbek va jahon adabiyoti fanidan sistemali bilimlar berish, jumladan fanning nazariy asoslari, badiiy adabiyot unung turlari, eng qadimgi adabiy yodgorliklar, qahramonlik eposlari, ijodkorlar va ularning baliy asarlari bo`yicha dastlabki bilimlar, ko`nikma va malakalar berishni belgilab beradi.

Tuzuvchi:

o`qituvchi D.Ashurov

Taqrizchilar:

fil.f.n.,dots. M. Sulaymonov

fil.f.n.,dots. F.Karimova

I semestr (18 soat)

1-Mavzu: Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” dostonidagi ahloqiy-na’limiy qarashlar.

Reja:

1. Yusuf Xos Hojib Sharq uyg'onish davrining turkiy muhitdagi dastlabki yirik siymosidir.
2. Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi.
3. "Qutadg'u bilig"- ilk didaktik doston.
4. Dostoning tarbiyaviy ahamiyati.

E’tibor bering!

Yusuf Xos Hojib Sharq Uyg'onish davrining turkiy muhitdagi dastlabki yirik siymolaridan biri. Uning hayoti va ijodi. "Qutadg'u bilig" dostonining yaratilishi. "Qutadg'u bilig"ning uch qo'lyozma nusxasi. "Qutadg'u bilig"- el-yurt madhiyasi. Asarning ramziy qahramonlari: Kuntug'di, Oyto'ldi, Ugdulmish, O'zg'urmish. Dostoning tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch iboralar:

"Qutadg'u bilig", Quz O'rdu, "budun" - "bo'dun", uquv.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, Toshkent - 1998.
2. I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi". "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, Toshkent - 1999.
4. Mallaev N. O'zbek dabiyoti tarixi. T., 1976 y
5. Vohidov R., Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.-Toshkent, 2006.

2-Mavzu: Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida insoniy fazilatlarning ulug’lanishi.

Reja:

1. Alisher Navoiyning hayot va ijod yo'li haqida.
2. “Hayrat ul-abror” ahloqiy-ta’limiy didaktik doston.
3. Navoiyning “Ikki do’st hikoyasi” haqida.
4. Alisher Navoiy shaxsini abadiylashtirish yo'lida...

E’tibor bering!

Bu mavzuda talabalar Alisher Navoiyning hayot va ijod yo'li, ilmiy va badiiy asarlari hususida fikr – mulohazalarini bildiradilar. Asosiy e’tiborlarini “Hayrat ul-abror” dostoniga qaratib, shoirning ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-falsafiy qarashlari haqida bahs-munozara uyushtiradilar. “Hayrat ul-abror” dostonidagi “Ikki do’st hikoyasi” hikoyatini o’rganib tahlil qiladilar.

Tayanch iboralar:

Nizomiddin Mir Alisher, Navoiy, Foni, "Amiri kabir" (ulug' amir), "amirul muqarrab" (podshoga eng yaqin amir), didaktik doston.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mallaev N. O'zbek dabiyoti tarixi. T., 1976
2. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. T., 1979
3. Mallaev N. O'zbek dabiyoti tarixi. T., 1976 y
4. Hayitmetov A. Navoiy dostonlaridagi realistik xususiyatlar. "Sharq yulduzi". 1966 yil 2-son.

3-Mavzu: "Boburnoma" da Bobur timsoli.

Reja:

1. "Boburnoma"- XVI asrning nodir namunasi.
2. Boburning o'z asarida keltirgan shaharlar tavsifi.
3. "Boburnoma"ning tarbiyaviy ahamiyati.

E'tibor bering!

«Boburnoma» - XVI asr nasrining nodir namunasi. Asardagi tarixiy shaxslar tasviridagi shoir mahorati. Asarda Boburning murakkab va ziddiyatli shaxs sifatida gavydalanishi. Asarda keltirilgan shaharlar tavsifi. «Boburnoma»ning nushalari va tarjimalari. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch iboralar:

"Boburnoma", "Xatti Boburiy", "Harb ishi", "Musiqiy ilmi", g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit'a, fard.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mallayev N. O'zbek dabiyoti tarixi. T., 1976 y
2. Zoxidov V. Zaxiriddin Muhammad Bobur. "O'zbek adabiyoti tarixidan". T., 1961
3. Ibroximova A. XVI asr O'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. T., 1976
4. Nosirov O. O'zbek adabiyotida g'azal. T., 1972 y
5. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. T., 1976 y

4-Mavzu: Boborahim Mashrab ijodida tariqat talqini.

Reja:

1. Boborahim Mashrab hayoti va ijodi manbalari.
2. Mashrab lirikasi va uning janr xususiyatlari.
3. Shoir tarjimai xoli va ijodiy faoliyatini yoritishda "Qissai Mashrab" ning o'rni.
4. Shoirning ijodiy merosi.

E'tibor bering!

Bu darsda talabalar Mashrab hayoti va ijodi, uning o'rganilish manbalari, xalq orasida u haqidagi rivoyatlar bilan tanishadilar. Mashrab lirikasi va uning janr xususiyatlari hususida fikrlarini bayon qiladilar. Mashrab g'azalaridan o'qib tahlil qiladilar.

Tayanch iboralar:

Shariat, qalandarlik tariqati, tariqat bosqichlari, vahdat ul vujud, anal haq, Mansur Xalloy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Matn va manbalar:

1. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan (Asarlar) T. 1990.
2. Qissai Mashrab. T. 1992.

II. Ilmiy adabiyotlar:

1. G'afur G'ulom. Adabiy -tanqidiy maqolalar. T. 1973.
2. M. Zokirov. Erk va ma'rifat kuychilari. T. 1984.
3. E. Shodiev. Mashrab. T. 1990.
4. A. Abduhafurov. Erk va ezgulik kuychilari. T. 1979.
5. I.Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. T. 1991.
6. N.Komilov. Tasavvuf. 2 -kitob, T. 1999

5-Mavzu: Muqimiy va xalq og'zaki ijodi.

Reja:

1. Muqimiy yashagan davr, tarixiy sharoit, adabiy muxit.
2. Shoir ijodining ommalashishi tarixidan.
3. Muqimiy g'azaliyotiga xalq og'zaki ijodining ta'siri.
4. Shoir ijodining mavzular ko'lami.
5. Adabiy merosi.

E'tibor bering!

Bu mavzuda talabalar Muqimiyning hayot va ijod yo'li, ilmiy va badiiy asarlari hususida fikr – mulohazalarini bildiradilar. Asosiy e'tiborlarini shoir g'azaliyotiga qaratib, shoirning ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-falsafiy qarashlari haqida bahs-munozara uyushtiradilar. Uning ijodiy me'rosini o'rganib tahlil qiladilar va xalq og'zaki ijodiga ta'siri xususida fikr-mulohazalarini bildiradilar. G'azalaridan o'qib tahlil qiladilar hamda yod oladilar.

Tayanch iboralar:

Muqimiy, lirik she'rlar, sayoxatnoma, xajviyot, satira, yumor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov g'azal. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1975.
2. Yoqubov X. Xalqparvar shoir. T., 1949.
3. Yaqubov X. O'zbek demokratik shoiri Muqimiy. T., 1953.
4. Olimjonov A. Muhammad amin Muqimiy. T., 1953.
5. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. T. 1961.

6-Mavzu: Qadimgi Yunon adabiyoti.

Reja:

1. Jug'rofiya va xronologiya.
 - a) Ibtidoiy jamoa tuzimi va uning mafkurasi.
 - b) Quldorlik tuzimi va uning mafkurasi.
2. Antik adabiyotning davrlarga bo'linishi.
3. Homer dostonlari, dostonlarning badiiy xususiyatlari.
4. Gomer dostonlari. esxil va Sofokl fojialarining qiyosiy tavsifi.

E'tibor bering!

“Antik” soʻzi lotincha “antiquus” soʻzidan olingan boʻlib, “qadimgi” degan maʼnoni bildiradi. Antik adabiyot atamasi butun jahon adabiyotining qadimgi davriga nisbatan emas, balki faqat Evropa adabiyotining qadimgi davriga nisbatangina ishlatiladi. Bu adabiyot ikki xalq tomonidan yaratilgan boʻlib, oʻz tarkibiga koʻra ham ikki shoxobchadan tashkil topgan: 1. Yunoniston adabiyoti; 2. Rim adabiyoti. Bu mavzuda talabalar Qadimgi Yunon adabiyoti, Jugʻrofiya va xronologiyasi, ibtidoiy jamoa tuzimi va uning mafkurasi, antik adabiyotning davrlarga boʻlinishi, Homer dostonlari, dostonlarning badiiy xususiyatlari, Gomer dostonlari, Esxil va Sofokl fojialarining qiyosiy tavsiflari hususida fikrlarini bildirib noananaviy dars olib boradilar.

Tayanch soʻz va iboralar:

Antik adabiyot, Yunoniston adabiyoti, mifologiya va antik adabiyot, folʼklor va antik adabiyot, Homer epopeyalari, Troya urushi haqida afsona, Homer jumbogʻi, Hesiod dostonlari, mil.av. VII-VI asrlar Yunoniston lirikasi, epos, maʼbud va maʼbudalar, gepoteza.

Savol va topshiriqlar:

1. Antik adabiyot tarkibini, uning davrlari va jugʻrofiy chegaralarini koʻrsating.
2. Yunoniston adabiyoti qanday davrlarga boʻlinadi?
3. Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlarining tarixiy–mifologik manbalarini koʻrsating.
4. Homer jumbogʻi tushunchasi nimani anglatadi?
5. Hesiod ijodida didaktik va genealogik epos taraqqiyotini taʼriflang.
6. Yunonistonda lirik tur ravnaqi haqida gapiring.

Adabiyotlar:

1. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T.: Oʻqituvchi, 1976, -416 bet.
2. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Maʼnaviyat. 1997.
3. Homer. Iliada. T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1988.
4. Homer. Odisseya. Ikkinchi qoʻshiq gʻgʻ “Jahon adabiyoti” 2001, №8, 58 – 66 –bet.
5. F.Sulaymonova. Sharq va Gʻarb. T.: Oʻzbekiston, 1999.
6. F. Boynazarov. Oʻrta Osiyoning antik davri. –T.: Oʻkituvchi, 1991.
7. F.Boynazarov. Qadimgi davr tarixi . Jizzax, “Sangzor”, 2002.

7-Mavzu: Rim adabiyoti.

Reja:

1. Mil.av.gi III – II asrlarda Rim jamiyati.
2. Dastlabki Rim shoirlari. Plavt va Terentsiya komediografiyasi
3. Notiqlik sanʼati va tarixiy proza taraqqiyoti.
4. Lukretsiyning “Buyumlar xislati” falsafiy dostoni.
5. Neoteriklar va Katull lirikasi.

E'tibor bering!

Rim adabiyoti antik adabiyot tarixidagi yangi bosqich hisoblanadi. Rim asosiy belgilariga koʻra qadimgi Yunoniston qanday taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan boʻlsa, ana shunday yoʻlni bosib oʻtdi. Bu yoʻl ibtidoiy urugʻchilik tuzumidan quldorlik,

shahar – davlatiga, undan so`ng esa keyinchalik ichki qarama-qarshiliklar tufayli emirilib, o`z o`rnini yangi ijtimoiy-iqtisodiy, formatsiya – feodalizmga bo`shatib bergan ulkan imperiya tuzilmasigacha bo`lgan yo`ldir. Mashg`ulotda talabalalar dastlabki Rim shoirlari: Plavt va Terentsiya ijodi, Lukretsiyning “Buyumlar xislati” falsafiy dostonini o`rganadilar. Neoteriklar va Katull lirikasini o`qib tahlil qiladilar.

Tayanch so`z va iboralar:

“Lotin Odisseyasi” (Liviy Andronik). “Pun urushi” (Gney Nevii).
“Annallar” (Kvint enniy). Rimda komediya: togata va palliata. “Xumcha” (Plavt). “Qaynona” (Terentsiy). Tsitseron nutqlari. Lutsiliy satirasi. “Buyumlar xislati” (Lukretsiy). Neoteriklar. Katull lirikasi.

Savol va topshiriqlar:

1. Rim adabiyotining davrlashtirilishi haqida gapiring.
2. Rim adabiyotining yuzaga kelishida Yunon adabiy tajribasining rolini ko`rsating.
3. Dastlabki Rim shoirlari haqida ma`lumot bering.
4. Rimda ichki urushlarning sabab va oqibatlarini ko`rsating.
5. Tsezarning “Galliya urushi xotiralari” va “Fuqaro urushi xotiralari” asarlarining yozilish tarixini so`zlang.
6. Lukretsiyning “Buyumlar xislati” dostonida epikur falsafasining ifodalanishi haqida gapiring.
7. Neoteriklar oqimi haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. I. Karimov “Barkamol avlod orzusi”. T.: Sharq, 1999.
2. I. Karimov. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: Sharq, 1999.
3. Chet el adabiyoti tarixi. Namunaviy va Ishchi dastur, - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
4. Tafakkur karvonlari. T.: Ma`naviyat. 1997.
5. Homer. Iliada. T., 1988.
6. F. Sulaymonova. Sharq va G`arb. T.: Sharq, 1999.

8-Mavzu: O`rta asrlar va Uyg`onish davri adabiyoti

Reja:

1. VI – XVII asrlar Evropa adabiyotining davrlashtirilishi.
2. Ilk o`rta asrlarda qahramonlik eposi.
3. Diniy-cherkov adabiyotining g`oyaviy yo`nalishi.
4. Ritsar-kurtuaz adabiyoti va uning janrlari.
5. Uyg`onish davri Evropa adabiyotining ahamiyati.

E`tibor bering!

Mil.iy V asrda qullar va kolonlarning qo`zg`olonlari hamda ularga xayrixoh bo`lgan varvarlarning Rimga bosqini natijasida Rim imperiyasi qulab, quldorlik tuzumi emiriladi. Uning o`rniga yangi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – feodalizm vujudga keladi. U IV – V asrlarda tarkib topa boshlab, XI – XV asrlarda yuqori bosqichga ko`tariladi va XVI – XVII asrlarda inqirozga yuz tutib, emirila boshlaydi. Shu tariqa yerga xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizm o`rnini kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari egallaydi. Shuning uchun qadimgi dunyo tarixining oxiri VI asrdan

yangi zamon kapitalizmning boshlanishi – XVII asrgacha boʻlgan davr Oʻrta asrlar nomi bilan yuritiladi. darsda talabalar VI – XVII asrlar Evropa adabiyotining davrlashtirilishi, diniy-cherkov adabiyotining gʻoyaviy yoʻnalishi, ritsar-kurtuaz adabiyoti va uning janrlari xususida bir – birlari bilan oʻqituvchi yordamida fikr almashadilar.

Tayanch soʻz va iboralar:

Oʻrta asrlar adabiyoti va uning rivojlanishi bosqichlari. Oʻrta asrlar adabiyotining davrlashtirilishi. Diniy – klerikal adabiyot. Xalqchil ruhdagi adabiyot. “Roland haqida qoʻshiq”. “Sud haqida qoʻshiq”. “Nibelunglar haqida qoʻshiq”. Ritsar’ – kurtuaz adabiyoti. “Yumaloq stol” romanlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Oʻrta asrlar adabiyotidagi uch yoʻnalish haqida soʻzlang.
2. Oʻrta asrlar adabiyotining qanday etakchi xususiyatlarini bilasiz?
3. Ritsar’ – kurtuaz adabiyotining janrlari haqida gapiring.
4. Oʻrta asrlar ritsarlik romanining qanday manbalarini bilasiz?
5. Oʻrta asrlar Evropa qahramonlik eposlarining ahamiyatini gapiring.

Adabiyotlar:

1. I. Karimov “Barkamol avlod orzusi”. T.: Sharq, 1999.
2. I. Karimov. Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: Sharq, 1999.
3. Chet el adabiyoti tarixi. Namunaviy va Ishchi dasturlar, - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
4. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. T., Oʻqituvchi, 1976.
5. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Maʼnaviyat 1997.

9-Mavzu: Ingliz va ispan Uygʻonish davri adabiyoti

Reja:

- 1) Servantes hayoti va ijodi.
- 2) Servantesning ispaniya uygʻonish adabiyotida tutgan oʻrni.
- 3) «Don Kixot» asari.

Eʼtibor bering!

Ispan uygʻonish davri adabiyoti XV – XVI asrlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, mamlakat tarixiy taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari bilan ravishda shakllanib, unda ilgʻor gumanistik gʻoyalar targʻib qilinadi. Bu mavzuda talabalar ingliz va ispan adabiyoti namoyondalari hayoti va ijodi bilan tanishish jarayonida uygʻonish davri adabiyotini bu yurtlarga taʼsiri xususida yangi fikrlarga ega boʻladilar. Servantesning «Don Kixot» asarida ilgari surilgan gʻoyalar haqida oʻz fikr-mulohazalari bilan dars davomida faol qatnashadilar.

Tayanch soʻz va iboralar:

Rekonkista, Uygʻonish harakati, Uygʻonish adabiyoti, ritsar’ adabiyoti, ritsar’ romani, novella, qahramonlik eposi, sonet, poema, parodiya.

Savol va topshiriqlar:

1. Servantes qachon va qaerda tugʻilgan?
2. Servantes qanday janglarda qatnashgan?
3. Yozuchi qanday asarlar yaratgan?
4. “Don Kixot” romanining etakchi gʻoyalari haqida gapiring.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intiloqda. T.: Sharq, 1999.
2. I.Karimov "Barkamol avlod orzusi", T.: Sharq, 1999.
3. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: "Musiqqa nashriyoti", 2006
4. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: "Cho'lpon", 2007
5. M.Servantes. "Don Kixot" romani. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
6. M.Servantes. "Don Kixot" romani. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.

II semestr (18 soat)

1-Mavzu: Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida timsollar tizimi.

Reja:

1. «O'tgan kunlar»da realistik tasvir qudrati.
2. Otabek va Kumush timsoli.
3. Yusufbek hoji – o'z yurti va xalqining taqdiri uchun qayg'uruvchi shaxs.
4. «O'tgan kunlar» - o'zbek romanchiligining buyuk cho'qqisi.
5. Asardagi salbiy va ijobiy qahramonlar.
6. Asarning tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati.

E'tibor bering!

XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga realistik hikoyalari, hajviy asarlari, publisistik va adabiyot tanqidiy maqolalari, badiiy tarjimalari, hayotiy mantiqqa asoslangan qissalari, xalqimizning birinchi muhabbatiga aylangan "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari bilan munosib xissa qo'shgan A. Qodiriy ko'p asrlik milliy adabiyotimiz rivojida tub burilish yasagan san'atkoridir.

Ushbu dars davomida talabalar yozuvchimizning ijodiga, asosan uning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlariga e'tiborlarini qaratadilar, hamda tahlil qiladilar.

Tayanch iboralar:

Roman, "O'tkan kunlar", Zaynab, Yusufbek hoji, Oftob oyim, Homid, "Mehrobdan chayon", Obid ketmon, "Axvolimiz", "Millatimga".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T.. 1999.
2. A.Qodiriy. A.Qodiriyning so'nggi kunlari. T., 1994.
3. Normatov U. "O'tkan kunlar" hayrati. T., 1994.
4. I.Solijonov. Ilik kurtaklar. "Sharq yulduzi" j. №5-6, T., 1994.
5. I.Solijonov. Aniqlik fazilati. "O'ZAS" gazetasi. 9.12.1994 y.
6. A.Qodiriy "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon". T., 1992.

2-Mavzu: Cho'lpon hayoti va ijodi

Reja:

1. Ijodiy merosi, dastlabki she'r va hikoyalari.
2. Cho'lpon she'riyatining mavzu doirasi. Cho'lpon dramaturgiyasi.
3. «Kecha va kunduz» romanida tarixiy o'tmish haqiqatining o'ziga xos talqini.

4. Cho'lponning «Kleopatra», «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz» hikoyalarida hayotga munosabatning ifodalanishi.

E'tibor bering!

Ushbu dars davomida talabalar Cho'lpon hayoti va ijodiga, ijodiy merosiga e'tiborlarini qaratadilar. Cho'lpon she'rlarini, dramalarini o'qib tahlil qiladilar. «Kecha va kunduz» romanini o'qib o'zaro bahs-munozara uyushtiradilar. Hamda uning «Kleopatra», «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz» hikoyalari ham dars davomida o'qib o'rganiladi.

Tayanch iboralar:

Cho'lpon, tarixiy roman, «Kecha va kunduz», «Kleopatra», «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent-1999 yil.
2. XX asr adabiyoti. Toshkent - 1999 yil.
3. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.
4. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T.. 1999.

3-Mavzu: Abdulla Qahhor hayoti va ijodi.

Reja:

1. Abdulla Qahhor hikoyalarining mavzu ko'lami.
2. Abdulla Qahhor qissalari: «Sinchalak» (1950), «Muhabbat» (1967), «O'tmishdan ertaklar» (1964).
3. Abdulla Qahhor romanlari:
4. Dramalari: «Shoxi so'zana» (1949), «Og'riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush».

E'tibor bering!

Ushbu dars davomida talabalar Abdulla Qahhor hayoti va ijodining o'rganilishi, adibning hayoti va faoliyati, mashhur hikoyanavisligi, qissa va romanlari hamda dramaturgiyasiga e'tiborlarini qaratadilar.

Abdulla Qahhor ijodi XX asr o'zbek adabiyotining yorqin va sermazmun sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali bu iste'dod sohibi turli janrlarda rang-barang badiiy asarlar yaratib, o'zbek adabiyoti xazinasini durdonalar bilan boyitdi. Va uning «Sinchalak», «Muhabbat», «O'tmishdan ertaklar», «Sarob», «Shoxi so'zana», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi asarlari ham dars davomida o'qib tahlil qilinadi.

Tayanch iboralar:

Adabiyotshunos olim, hikoya, qissa, roman, drama, komediya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent-1999 yil.
2. XX asr adabiyoti. Toshkent - 1999 yil.
3. K.Qahharova. Chorak asr hamnafas. Toshkent - 1997 yil.
4. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.

4-Mavzu: 60-90- yillar adabiyoti

Reja:

1. 60-90- yillar o'zbek adabiyotida ikki yo'nalish - an'anaviy sho'ro adabiyotiga xos xususiyatlar bilan bir qatorda milliy o'zlikni anglashga intilish tendentsiyasining paydo bo'la boshlashi.
2. She'riyatda E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, O.Matchon, keyinchalik X.Davron, U.Azimov, A.Suyun, Sh.Raxmon kabi ko'plab ijodkorlar ijodida yangicha uslubiyy-kontseptual izlanishlarning namoyon bo'la borishi.

E'tibor bering!

Bu darsda talabalar 60-90- yillar o'zbek adabiyotida ro'y bergan o'zgarish va yangiliklar, shu davrning lirikasi, nasri, dramaturgiyasi bilan tanishish davomida shu yillarda adabiyotga kirib kelgan ijodkorlar ijodlari bilan ham yaqindan tanishadilar va ular ijodini bir-birlariga solishtirib o'rganadilar.

Tayanch iboralar:

Milliy o'zlikni anglash, lirika, nasr, dramaturgiya, roman, qissa, hikoya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T.. 1999
2. S. Mirzayev XX asr o'zbek adabiyoti. T..2005

5-Mavzu: Erkin Vohidov hayoti va ijodi.

Reja:

1. Dastlabki ijodi. 60-yillardagi ilk she'riy to'plamlari: «Muhabbat devoni».
2. 70-80 yillar shoir she'riyatida keng ko'lamdorlik va falsafiy teranlik. «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qirg'oq».
3. Erkin Vohidov – dramaturg. «Oltin devor» komediyasi, «Istambul fojiasi» dramasi.

E'tibor bering!

O'zbekiston xalq shoiri, noyob iste'dod sohibi Erkin Vohidov she'riyatimizning porloq yulduzidir. Shu bilan birga, u taniqli jamoat arbobi hamdir. Ushbu dars davomida talabalar Erkin Vohidov hayoti va ijodi, 60-yillardagi ilk she'riy to'plamlari, «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qirg'oq» kabi to'plamlaridagi she'rlarini o'qib tahlil qiladilar. Shu bilan birgalikda uning «Oltin devor» komediyasi va «Istambul fojiasi» dramasini o'qib o'rganadilar.

Tayanch iboralar:

She'r, doston, g'azal, "Hozirgi yoshlar", "Inson", "Sirdaryo o'landi", "Arslon o'ynatuvchi", "Ruhlar isyoni", "Istambul fojiasi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Mirzayev XX asr o'zbek adabiyoti. T..2005
2. S.Mirvaliev. O'zbek adiblari.
3. XX asr adabiyoti. Toshkent - 1999 yil.
4. E.Vohidov."Kuy avjida uzilmasin tor".
5. "Yoshlik devoni".

6-Mavzu: Evropada Uyg'onish davri adabiyoti.

Reja:

1. Imperator Oktavian Avgust zamonasi shoirlari.
2. Vergeliy, Goratsiy hamda Ovideylar ijodining Rim adabiyoti tarixida tutgan o'rnini.
3. Dantening "Iloxiy" komediyasi, Bokachchoning "Dekameron" asarlari uyg'onish davrining yirik asarlari.

E'tibor bering!

Bu darsda talabalar jahon adabiyoti bo'yicha olgan bilimlari yordamida Imperator Oktavian Avgust zamonasi shoirlarining hayoti va ijodi, Vergeliy, Goratsiy hamda Ovideylarning jahon adabiyotiga qo'shgan hissalarini haqida fikr bildirib o'tadilar. Shu bilan birgalikda ular Dantening "Iloxiy" komediyasi, Bokachchoning "Dekameron" asarlarini o'qib o'rganadilar.

Tayanch iboralar:

Uyg'onish davri, Oktavian Avgust, Vergeliy, Goratsiy hamda Ovidey, Dante, "Iloxiy komediya", "Dekameron".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chet el adabiyoti tarixi. Namunaviy va Ishchi dasturlar, - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
2. Alimhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O'qituvchi, 1976.
3. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Ma'naviyat 1997.
4. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: "Musiqi nashriyoti", 2006
5. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: "Cho'lpon", 2007

7-Mavzu: Italiyada uyg'onish davri adabiyoti.

Reja:

1. Uyg'onish davrining asosiy xususiyatlari.
2. Italiya uyg'onish xarakatining vatani sifatida.
3. Dante Alig'eri o'rta asrlarning oxirgi va uyg'onish davrining ilk shoiri.
4. Petrarka va Bokkachcho ijodi.
5. Italiya uyg'onish davri adabiyotining tarixiy ahamiyati.

E'tibor bering!

XIV asrning 2-choragidan dastlab Italiyada kapitalistik munosabatlarning kurtaklari ko'zga tashlanib boshlaydi. Ayni shu davrdan uning mafkurasi sifatida Renessans harakati ham yuzaga keladi. "Renessans" frantsuzcha so'z bo'lib, "uyg'onish" degan ma'noni bildiradi. Ma'lumki, lotincha, "gumanist"- so'zi "insoniy" degan ma'noni ifodalaydi. Shu tariqa Renessansning ilk vatani Italiya, uning ilk shoiri esa Dante Alig'eri bo'ldi. Dante Alig'eri ijodi bilan O'rta asrlar adabiyoti yakunlanadi va Renessans adabiyoti boshlanadi. Bu darsda talabalar Dante Alig'eri, Petrarka va Bokkachcholar hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishadilar.

Tayanch iboralar:

Renessans harakati. Renessans adabiyoti. "Yangi hayot" (Dante Alig'eri). "Ilohiy komediya" (Dante Alig'eri). "Kantson'ere" (F. Petrarka). J. Bokkachcho novellistikasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chet el adabiyoti tarixi. Namunaviy va Ishchi dasturlar, - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
2. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O'qituvchi, 1976.
3. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Ma'naviyat 1997.
4. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: "Musiqqa nashriyoti", 2006
5. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: "Cho'lpon", 2007

8-Mavzu: Angliyada uyg'onish adabiyoti.

Reja:

1. XV-XVI asrlarda Angliya jamiyati. Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi.
2. Uil'yam Shekspir (1564-1616) hayoti va ijodi.
3. Uil'yam Shekspir lirikasi va dostonlari.
4. Renessans g'oyalarining ifodalanishi.
5. Angliya uyg'onish davri adabiyotining tarixiy ahamiyati.

E'tibor bering!

Angliyada Uyg'onish harakati Evropaning boshqa mamlakatlariga nisbatan bir muncha keyin, ya'ni XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bu davr Angliya gumanistlari o'z g'oyalarini targ'ib qilishda eng avvalo san'at va adabiyotdan foydalandilar. Angliya Renessans adabiyotining tadrijiy taraqqiyot bosqichlari quyidagicha belgilanadi: 1-bosqich – XV asrning oxiri va XVI asrning 60-70 yillari. 2-bosqich – XVI asrning oxiri XVII asrning boshlari. 3-bosqich – XVII asrning boshlari (aniqrog'i 1616 yildan) shu asrning 40-yillarigacha.

Bu darsda talabalar jahon adabiyoti bo'yicha olgan bilimlari yordamida Angliya uyg'onish davri adabiyotining tarixiy ahamiyatini bilib oladilar. Uil'yam Shekspir hayoti va ijodi bilan ham yaqindan tanishib oladilar.

Tayanch iboralar:

Angliya Uyg'onish adabiyotining uch bosqichi. XVII asrlar Angliya utopik romani. Shekspir o'tmishdoshlari. Shekspir sonetlari. Shekspir dostonlari. Shekspir komediyalari. Shekspir tarixiy xronikalari. "Makbet".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O'qituvchi, 1976.
2. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Ma'naviyat 1997.
3. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: "Musiqqa nashriyoti", 2006
4. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: "Cho'lpon", 2007

9-Mavzu: Daniel' Defo hayoti va ijodi.

Reja:

1. Daniel' Defoning hayoti va ijodi.
2. Defoning jurnalistik faoliyati.
3. "Robinson Kruzo" romanining tarixiy, tarbiyaviy ahamiyati.

E'tibor bering!

Daniel' Defo jurnalist, satirik pamfletlar, romanlar, traktalar muallifidir. U ko'p sonli maqola va pamfletlarida feodal-aristokratlar bilan cherkov reaksiyasini fosh qiladi. Bu darsda talabalar uning hayoti va ijodi, asarlari bilan yaqindan tanishadilar. «Robinzo Kruzo» romanini o'rganadilar.

Tayanch iboralar:

Ma'rifatchilik adabiyoti, satirik pamfletlar, trakta, "Robinzon Kruzo".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O'qituvchi, 1976.
2. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Ma'naviyat 1997.
3. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: "Musiqqa nashriyoti", 2006
4. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: "Cho'lpon", 2007

III semestr (14 soat)

1-Mavzu: Abdulla Oripov hayoti va ijodi

Reja:

1. Dastlabki she'riy to'plamlari: «Mitti yulduz» (1965), «Ko'zlarim yo'lingda» (1966), «Onajon» (1969).
2. Shoirning 70-80 yillardagi ijodi.
3. Mavzular ko'lamining kengligi, falsafiy teranlik, jo'shqinlik.
4. A.Oripovning 90-yillardagi ijodi.
5. Shoir she'rlaridagi xalqchilik, kurashchanlik, publisistik ruhning kuchliligi.
6. Shoir dostonlari: «Jannatga yo'l», «Ranjkom».

E'tibor bering!

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov — tug'ma iste'dod egasi. U — juda siyrak uchraydigan noyob, nodir shoir. Uning so'z san'ati xazinasiga qo'shgan hissasi bebaho. Ana shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov shoir ijodiga yuksak baho berib, «Biz XX asr adabiyotini Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek kabi mumtoz adiblarsiz, zamonaviy adabiyotimizni Said Ahmad, Erkin Vohidov singari ijodkorlarsiz tasavvur eta olmaganimizdek, ma'naviy kelajagimizni, farovon va buyuk istiqbolimizni Abdulla Oripov ijodisiz ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Hozirgi davrda uning she'rlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug' kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma'naviy omil bo'lib xizmat qilmoqda¹», — degan edi.

Bu darsda talabalar O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning hayoti va ijodi, uning she'rlari bilan tanishadilar. «Jannatga yo'l», «Ranjkom» dostonlarini o'qib o'rganadilar.

Tayanch iboralar:

¹ «O'zAS» gazetasi, 2001-yil, 23-mart.

She'r, doston, «Mitti yulduz», «Ko'zlarim yo'lingda», «Onajon», "Munojat", "Hikmat sadolari", "Haj daftari".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr adabiyoti. Toshkent - 1999 yil.
2. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.
3. Qo'shjonov. "Onajonim" she'riyat. Toshkent 1983.
4. A.Oripov "Onajon" 1969.
5. S. Mirzayev XX asr o'zbek adabiyoti. T..2005.
6. A.Oripov "Yurtim shamoli".

2-Mavzu: Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi

Reja:

1. P. Qodirovning ijodiy faoliyati
2. P. Qodirov ijodida - yangi tipdagi o'zbek adabiyotining vujudga kelishi.
3. "Uch ildiz" romani haqida.
4. "Yulduzli tunlar" romanida Bobur timsoli.

E'tibor bering!

Pirimqul Qodirov — iste'dodli nosir, zukko adabiyotshunos olim, ajoyib tarjimon. U, ayniqsa, nasrimiz rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

Bu darsda talabalar P. Qodirovning ijodiy faoliyati, uning hikoya, qissa va romanlariga: "Qadrim", "Erk", "Uch ildiz", "Yulduzli tunlar" kabi asarlariga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Tayanch iboralar:

Qadrim", "Erk", "Uch ildiz", "Yulduzli tunlar".

Foydalanilgan adabiyotlar:

7. XX asr adabiyoti. Toshkent - 1999 yil.
8. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980
9. S. Mirzayev XX asr o'zbek adabiyoti. T..2005

3-Mavzu: O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi.

Reja:

1. 60-yillardagi ijodining boshlanishi: «Po'lat chavandoz», «Yo'l havosi».
2. Yozuvchining 70-80-yillardagi ijodi: «Odamlar nima derkin», «Shamol esaveradi», «Baho qaytmaydi», «Qalbingga quloq sol», «Uzun kechalar», «Quyosh tarozusi», «Dunyoning ishlari» hikoya va qissalari haqida.
3. «Nur borki, soya bor», «Ikki eshik orasi» asarlarida shaxsga sig'inish va qatag'onlik davri illatlarining fosh etilishi.
4. Tarjimalari.

E'tibor bering!

Bu darsda talabalar O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi, yozuvchining 60-70-80-yillardagi ijodi hamda hozirgacha yaratgan ijodiy merosi bilan yaqindan tanishadilar.

«Po'lat chavandoz», «Yo'l havosi», «Odamlar nima derkin», «Shamol

esaveradi», «Bahor qaytmaydi» , «Qalbingga quloq sol» , «Uzun kechalar» , «Quyosh tarozusi» , «Dunyoning ishlari» hikoya va qissalari «Nur borki, soya bor», «Ikki eshik orasi» kabi romanlarini o'rganadilar.

Tayanch iboralar:

Hikoyalari, qissalari va romanlari."Daftar hoshiyasidagi bitiklar".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr adabiyoti. Toshkent - 1999 yil.
2. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980
3. S. Mirzayev XX asr o'zbek adabiyoti. T..2005

4-Mavzu: Muhammad Yusuf hayoti va ijodi.

Reja:

1. Dastlabki she'riy to'plamlari: «Tanish teraklar» (1985), «Bulbulga gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988).
2. Shoirning 90- yillardagi ijodi: «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Ishq kemasi» (1990), «Erka kiyik» (1992).
3. Mavzular ko'lamining kengligi, falsafiy teranlik, jo'shqinlik.
4. Shoir she'riyatining rang-barang olami.
5. Shoir she'rlaridagi xalqchilik, kurashchanlik, publisistik ruhning kuchliligi.

E'tibor bering!

Bu darsda talabalar shoir hayoti va ijodi, ijodiy merosi va turli yillarda chop etilgan she'riy to'plamlari bilan tanishadilar. Shoir she'rlaridagi xalqchilik, kurashchanlik, publisistik ruhning kuchliligi masalalari she'rlari tahlili davomida ochishga harakat qilinadi.

Tayanch iboralar:

«Tanish teraklar», «Bulbulga gapim bor» «Iltijo», «Ko'nglimda bir yor», «Ishq kemasi», «Erka kiyik».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XX asr adabiyoti. Toshkent - 1999 yil.
2. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980
3. S. Mirzayev XX asr o'zbek adabiyoti. T..2005

5-Mavzu: Jonatan Svift hayoti va ijodi.

Reja:

1. Ma'rifatchilik adabiyotida Jonatan Sviftning tutgan o'rni
2. Adib ijodida xalq hayoti tasviri masalasi.
3. "Guliverning sayohatlari" asarida ingliz hayotining tanqid qilinishi.
4. Romanining tarixiy, tarbiyaviy ahamiyati.

E'tibor bering!

Ma'rifatparvar yozuvchilar adabiyoti tug'ilib kelayotgan yangi sinfning g'oyaviy kurash quroli deb biladilar. Ma'rifatparvarlar «tabiiy inson haqidagi»

kontseptsiyasini ilgari surdilar. Ularning fikricha inson tabiatan go'zal va yaxshi xulqli, uni faqatgina hayot, yashash sharoiti buzadi.

Swift – asosan siyosiy yozuvchi. Uni asosan ijtimoiy masalalar qiziqtiradi. Uni dunyo sirlari, go'zallik, chuqur psixologizm qiziqtirmaydi. Faqat jamiyat nuqsonlari qiziqtiradi.

Bu darsda talabalar adib hayoti va ijodi, ijodiy merosi va turli yillarda chop asarlari bilan tanishadilar. “Guliverning sayohatlari” asarini o'qib o'rganadilar.

Tayanch iboralar:

Ma'rifatparvar yozuvchi, siyosiy yozuvchi, ijtimoiy masala, “Guliverning sayohatlari”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chet el adabiyoti tarixi. Namunaviy va Ishchi dasturlar, - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004
2. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O'qituvchi, 1976.
3. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., Ma'naviyat 1997.
4. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: “Musiqqa nashriyoti”, 2006
5. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: “Cho'lpon”, 2007

6-Mavzu: Vil'yam Shekspir hayoti va ijodi.

Reja:

1. Vil'yam Shekspir hayoti va ijodi.
2. Ijodining birinchi davri: «Qiyiq qizning quyilishi» (1593), «Veronalik ikki yigit» (1594), «Yoz kechasidagi tush» (1595), «O'n ikkinchi kecha» (1600)
3. Ijodining ikkinchi davri
4. Ijodining uchinchi davri.
5. Vil'yam Shekspir lirikasi va dostonlari.

E'tibor bering!

Vil'yam Shekspir gumanizmi “Otello” (1604), “Qirol Lir” (1605) asarlarida o'z davrining ilg'or g'oyalarini ifodalab, kuchli tragik va psixologik obrazlar yaratdi. Buyuk dramaturg gumanizmining chuqur xalqchilligi shundaki, u insonning kelajagi, aql-idroki, istak-orzulari tantanasiga ishonadi.

Bu darsda talabalar adib hayoti va ijodi, uning asarlari: «Qiyiq qizning quyilishi», «Veronalik ikki yigit», «Yoz kechasidagi tush», «O'n ikkinchi kecha», “Makbet”, «Otello», «Qirol Lir», «Hamlet», «Romeo va Jul'etta», «Yuliy Tsezar» kabi asarlarini o'qib o'rganadilar.

Tayanch iboralar:

Angliya Uyg'onish adabiyotining uch bosqichi. XVII asrlar Angliya utopik romani. Shekspir o'tmishdoshlari. Shekspir sonetlari. Shekspir dostonlari. Shekspir komediyalari. Shekspir tarixiy xronikalari. “Makbet”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1979.
2. U. Shekspir. Sonetlar. T., 1978.

3. U.Shekspir. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. T., 1981 – 1985.
4. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O`qituvchi, 1976.
5. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T.,Ma`naviyat 1997.
6. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: “Musiq nashriyoti” , 2006
7. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: “Cho`lpon”, 2007

7-Mavzu: Mark Tven hamda Xeminguey hayoti va ijodi.

Reja:

1. Mark Tvenning ijodiy faoliyati.
2. Mark Tven – AQSHning yirik hajviyotchi adibi.
3. “Tom Soyerning sarguzashtlari” romani Amerika bolalar adabiyotining ilk namunasi ekanligi.
4. Xemingueyning jurnalistik faoliyati.
5. Urushga qarshi nafrat bilan sug`orilgan asarlari.
6. “Alvido qurol” romani.
7. “Chol va dengiz” qissasida tabiat va jamiyat ziddiyatlari bilan kurashda inson irodasining bukilmashligi tasvirlanishi.

E’tibor bering!

Bu darsda talabalar adiblar hayoti va ijodi, ular yaratgan asarlarga e’tiborlarini qaratadilar va rejada keltirilgan asarlarni mustaqil o`qib o`rganadilar. Mark Tven – AQSHning yirik hajviyotchi adibi, Xemingueyning jurnalistik faoliyati haqida gapirib beradilar. Yozuvchilar asarlarini o`qib tahlil qilishadi.

Tayanch iboralar:

Mark Tven, hajviyot, ijodi "Qalaverasdan chiqqan mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa", "Tennesiyada jurnalistika", "Men qishloq xo`jaligi gazetasini qanday tashrir etdim".“Alvido qurol” , “Chol va dengiz” .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1979.
2. U.Shekspir. Sonetlar. T., 1978.
3. U.Shekspir. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. T., 1981 – 1985.
4. Alimuhammedov A. Antik adabiyot tarixi. T., O`qituvchi, 1976.
5. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T.,Ma`naviyat 1997.
6. Boynazarov F. Jahon adabiyoti T.: “Musiq nashriyoti” , 2006
7. Jomonov R., Mirzaeva Sh. Chet el adabiyoti T.: “Cho`lpon”, 2007